

GOSPITAL TA'LIM O'QUVCHILARIDA BILISH JARAYONLARINI  
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI

*Umarova Iroda Zafarovna*

*Alimbayeva Bunafsha Toibovna*

*Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi  
huzuridagi "Meharli maktab" davlat ta'lim  
muassasasi Andijon viloyati filiali psixologi:  
Muhammadumarsoliyev0@gamil.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada uzoq muddat davolanayotgan o'quvchilar uchun hospital ta'limni tashkil etishning psixologik va pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Bilish jarayonlari — diqqat, xotira, tafakkur va idrok — kasallik sababli sekinlashishi mumkinligi, ularga mos samarali pedagogik yondashuvlarni qo'llash zarurati asoslab beriladi. Maqolada kognitiv treninglar, gamifikatsiya, emotsional qo'llab-quvvatlash metodlari va shaxsga yo'naltirilgan, moslashtirilgan ta'lim texnologiyalari hospital pedagogikasining asosiy metodik yo'nalishlari sifatida tahlil qilinadi. Hospital ta'limni insonparvarlik, psixologik xavfsizlik va ijtimoiy rehabilitatsiyaga xizmat qiluvchi pedagogik tizim sifatida shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** hospital ta'lim, bilish jarayonlari, psixologik-pedagogik yondashuv, motivatsiya, emotsional qo'llab-quvvatlash, o'yinli ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan metodika.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются психолого-педагогические особенности организации госпитального обучения для учащихся, находящихся на длительном лечении в медицинских учреждениях. Обосновывается необходимость применения эффективных методов педагогического воздействия для активизации когнитивных процессов — внимания, памяти, мышления и восприятия — в условиях болезни и изоляции. В статье анализируются когнитивные тренинги, методы геймификации, эмоциональной поддержки и индивидуализированные технологии, направленные на развитие познавательной активности детей в условиях госпитальной среды. В заключении приводятся практические рекомендации по формированию госпитального обучения как гуманной, безопасной и реабилитационной педагогической системы.

**Ключевые слова:** госпитальное обучение, познавательные процессы, психолого-педагогический подход, мотивация, эмоциональная поддержка, игровые методы, индивидуализированное обучение.

**Annotation:** This article explores the psychological and pedagogical foundations of hospital-based education for students undergoing long-term treatment in healthcare institutions. It substantiates the necessity of applying effective teaching methods to

activate cognitive processes such as attention, memory, thinking, and perception, which may deteriorate under conditions of illness and social isolation. The study analyzes cognitive training, gamification, emotional support strategies, and learner-centered adaptive technologies as key methodological approaches in hospital pedagogy. The conclusion provides practical recommendations for developing hospital education as a humane, psychologically safe, and socially rehabilitative educational system.

**Keywords:** hospital education, cognitive processes, psycho-pedagogical approach, motivation, emotional support, game-based learning, individualized methodology.

**Kirish.** Zamonaviy ijtimoiy taraqqiyot sharoitida ta'limning uzluksizligi prinsiplari asosiy qadriyatga aylanib borar ekan, har qanday salomatlik holatidan qat'i nazar, har bir bolaning sifatli ta'lim olish huquqini ta'minlash dolzarb ijtimoiy-madaniy vazifaga aylangan. Ayniqsa, uzoq muddatli yoki surunkali kasalliklar sababli sog'liqni saqlash muassasalarida — ya'ni shifoxona yoki reabilitatsion markazlarda davolanayotgan bolalar uchun ta'lim olishning maxsus shakllarini tashkil etish masalasi nafaqat pedagogik, balki psixologik, sotsiologik va huquqiy yo'nalishlarda keng muhokama qilinmoqda. Gospital ta'lim aynan ana shunday ta'lim shakllaridan biri bo'lib, o'quvchilarning bilish, rivojlanish va ijtimoiylashuv jarayonlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Ilmiy-pedagogik manbalarda ta'kidlanishicha, bilish jarayonlari — ya'ni idrok, xotira, diqqat, tafakkur, tasavvur kabi funksiyalar bolaning shaxs sifatida shakllanishi va o'zini anglashida asosiy vosita hisoblanadi. Bu jarayonlar o'ziga xos qonuniyatlarga ega bo'lib, sog'lom emotsional holat, ijtimoiy rag'bat, individual e'tibor va motivatsiya bilan chambarchas bog'liq. Biroq gospital sharoitida ushbu omillar jiddiy cheklovlarga uchraydi. Bola doimiy tibbiy nazoratda bo'ladi, dori vositalarining neyropsixologik ta'siri, og'riq sindromlari, stressli sharoit, izolyatsiya va ijtimoiy aloqalarning uzilishi tufayli uning kognitiv faoliyatida pasayish, intellektual sustkashlik, xotira buzilishi yoki psixoemotsional inqiroz holatlari yuzaga kelishi mumkin.

Gospital pedagogikasi bu borada nafaqat ta'lim jarayonini moslashtirish, balki bolaning psixik holatini tahlil qilish, stressga chidamliligini oshirish, ijtimoiylashuvga yo'naltirish va o'z-o'zini anglash jarayonlarini faollashtirishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, kognitiv treninglar, gamifikatsiya elementlari, terapevtik suhbatlar, vizual stimulatsiya metodlari, shaxsga yo'naltirilgan mini-loyihaviy faoliyatlar yordamida bolaning qiziqishi va diqqatini yo'naltirish orqali bilish jarayonlarini rag'batlantirish mumkin. Bu jarayonlar pedagog-psixologlar va sog'liqni saqlash mutaxassislarining uzviy hamkorligida olib borilsa, ta'lim sifati va o'quvchining umumiy psixik rivojlanishi uchun yanada mustahkam poydevor yaratadi. Tadqiqotlar shuni

ko'rsatadiki, uzoq muddatli statsionar davolanish jarayonida bo'lgan bolalarda darslardan, o'qituvchilardan va tengdoshlardan uzoqlashish natijasida o'quv motivatsiyasi zaiflashadi, bilimlarni egallash sifati pasayadi, kognitiv bo'shliqlar yuzaga keladi, bundan tashqari, emotsional beqarorlik, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi va ijtimoiy ajralish hissi natijasida bolaning umumiy psixik barqarorligi izdan chiqadi. Shunday sharoitda faqatgina bilim berishga emas, balki bolaning bilish faoliyatini faollashtirishga, unga mos individual usullar orqali o'z imkoniyatlarini namoyon etishga imkon beruvchi samarali pedagogik yondashuvlar zarur bo'ladi.

Pedagogik yondashuv bolaning sog'ligi bilan emas, uning imkoniyatlari bilan o'lchanmog'i lozim[1]. Bu fikr orqali gospital ta'limning falsafasini ifodalaydi. Unga ko'ra, bola sog'lom yoki kasal bo'lishidan qat'i nazar, unda intellektual va hissiy resurslar mavjud. Ularni faollashtirish pedagogik mahoratga bog'liq. Bu yondashuv teng imkoniyat tamoyilini qo'llab-quvvatlaydi - bola sog'ligidan kelib chiqib emas, balki o'z ichki salohiyatiga ko'ra baholanishi kerak. Bu prinsip gospital pedagogikani insonparvarlik asosida tashkil etish uchun zaruriy metodik mezon hisoblanadi. Inson tafakkuriga xos bo'lgan real jarayon shundaki, hatto jismoniy holati zaif, emotsional jihatdan charchagan bola ham ma'lum bir qiziqish, quvnoq ruhda yondashilsa yoki uni o'zi qiziqqan faoliyatga jalb etilsa, ichki bilishga bo'lgan ehtiyojini namoyon qila boshlaydi. Shuning uchun gospital ta'limda "avvalo inson, so'ngra o'quvchi" tamoyili ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Gospital muhitda har bir bola o'z dunyosining markazida turgan yagona shaxs sifatida qabul qilinmog'i zarur, zero har bir bolaning o'z imkoniyati, o'z qobiliyati va o'z sur'ati mavjud. Bilish jarayonlarini rivojlantirishda umumiy tizim emas, balki individual profil asosida tuzilgan metodik yondashuvlar samarali bo'ladi.

Gospital ta'lim - bu surunkali yoki uzoq muddatli kasallik sababli shifoxona yoki reabilitatsion muassasalarda davolanayotgan o'quvchilar uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim shaklidir. Mazkur ta'lim modeli o'zining psixologik va pedagogik yondashuvlari bilan an'anaviy maktab ta'limidan tubdan farq qiladi, chunki u nafaqat bilim berish, balki bolaning sog'lig'i, ruhiy holati va emotsional ehtiyojlarini muvozanatda ushlab turishga qaratilgan kompleks tizimni talab qiladi. Gospital ta'limda o'qituvchi - oddiy bilim yetkazuvchidan ko'ra ko'proq murabbiy, psixolog va motivator vazifasini bajaradi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, gospital pedagogikasining asosiy maqsadi - o'quvchining kasallik sababli yuzaga kelgan ajralish va uzilishlardan so'ng ham ijtimoiy va akademik jihatdan to'liq rivojlanishini ta'minlashdir. Ta'lim uzviy jarayon bo'lganligi sababli, undan uzoqlashish nafaqat bilimdagi bo'shliqlarni, balki o'z-o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishini, ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklarni va ruhiy tushkunlikni keltirib chiqaradi. Gospital muhitda esa bularning oldini olish uchun ta'lim samaradorligi bilan bir qatorda, shaxsga yo'naltirilgan psixologik qo'llab-quvvatlov ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola harakatga undovchi ichki kuch - bu bilim olish jarayonidan quvonch olish ehtiyojidir[2]. J.Brunerning bu fikri motivatsion psixologiyaning markaziy qonuniyatiga asoslanadi: o'rganishdan zavq olish o'zi ta'limning asosiy maqsadidir. Gospital ta'limda bu tamoyil yanada muhim, chunki bolaning quvonchga, ijobiy his-tuyg'uga bo'lgan ehtiyoji sog'lom o'quvchilarnikiga qaraganda kuchliroq. Dars jarayoni shunday tashkil etilishi kerakki, har bir mashg'ulot bolada "bilim olish - bu hayotning qismi" degan ichki tuyg'uni uyg'otsin. O'yin, vizual mashg'ulotlar, kreativ topshiriqlar va rag'batlantirish tizimi o'quvchi psixikasini ijobiy tomonga buradi va kognitiv faoliyatni tiklaydi. Bunday sharoitda ta'lim mazmuni va metodikasi bolaning psixofiziologik holatiga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Darslar jadvali moslashuvchan, yuklama esa eng kam darajada bo'lishi lozim. Har bir mashg'ulot bolani charchatmasligi, balki unda qiziqish uyg'otib, ijobiy emotsiyalar berishi kerak. Ayniqsa, og'ir davolanish jarayonida bo'lgan, kimyoviy dori vositalarining ta'sirini boshidan kechirayotgan, emotsional jihatdan beqaror bolalarga nisbatan darslar vizual materiallar, o'yinli usullar, interaktiv mashqlar asosida tashkil qilinadi. Bu yondashuvlar bolada bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni faollashtiradi, diqqat va xotirani qo'llab-quvvatlaydi, tafakkur jarayonini stimullashtiradi.

Gospital ta'limda alohida o'rin egallovchi psixopedagogik tamoyillardan biri bu "moslashuvchan individuallashtirish" tamoyilidir. Har bir bola o'zining sog'lig'i, emotsional fon, rivojlanish darajasi, oilaviy qo'llab-quvvatlash darajasi va o'rganish sur'atiga ko'ra farqlanadi. Shu sababli, gospital pedagogi har bir o'quvchiga individual o'quv trajektoriyasini ishlab chiqishi va uni muntazam monitoring qilib borishi lozim. Bu o'quv trajektoriyasi nafaqat fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishga, balki bolaning shaxsiy va emotsional rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga xizmat qilishi kerak. Gospital sharoitida o'quvchilarning o'z tengdoshlari bilan muloqotga kirisha olmasligi - ularning ijtimoiylashuv jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ta'lim jarayonida ijtimoiy-psixologik interaksiyani kuchaytiruvchi texnologiyalar - masalan, onlayn guruhli darslar, terapevtik muloqot mashg'ulotlari, virtual sinf faoliyatlari, videomurojaatlar va "do'stona o'yinlar" orqali hamkorlikda fikrlash uslublari faol qo'llanishi kerak. Bu nafaqat bilim almashinuvini, balki psixologik qo'llab-quvvatlashni ham ta'minlaydi. Bemor bolada tafakkur faolligini saqlab qolish uchun pedagogning har bir so'zi-bu psixologik impulsdur[3]. G.V.Burmenskaya gospital ta'limdagi kommunikatsiyaning o'ta nozik tabiatini ko'rsatadi. Har bir so'z, ohang, yuz ifodasi bolaning psixologik holatiga bevosita ta'sir qiladi. Ustozning "sen uddalaysan", "bu juda yaxshi natija" kabi iboralari bolaning kognitiv tizimiga emotsional impuls beradi. Natijada tafakkur jarayoni tezlashadi, diqqat tiklanadi, xotira faollashadi. Shunday qilib, pedagogik muloqot - bu darsning o'zi bilan teng darajada davolovchi vositadir. Inson psixikasining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri bu - bilish jarayonlaridir. Mazkur jarayonlar - ya'ni idrok, diqqat, xotira, tafakkur, nutq va

tasavvur - bolaning shaxsiy taraqqiyotida va atrof-muhit bilan o‘zaro munosabatini shakllantirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Bilish faoliyatining uzluksizligi, dinamikasi va sifati o‘z navbatida bola salomatligiga, emotsional foniga, ijtimoiy aloqalariga va ichki ruhiy holatiga bevosita bog‘liqdir. Aynan shu sababli gospital sharoitida davolanayotgan bolalarda bilish jarayonlarining tabiiy rivojlanishi sezilarli darajada susayishi mumkin va ularning aksariyatida bilish faoliyati bilan bog‘liq quyidagi salbiy belgilar kuzatiladi: diqqatning tarqoqligi, xotira hajmining kamayishi, mustaqil fikr yuritishdagi sustkashlik, harakat va mulohazalarning sekinligi, hamda bilishga nisbatan befarqlik. Shuningdek, ota-onaning doimiy tashvishli holati, tibbiyot xodimlarining sovuqqon yondashuvi, izolyatsiyalangan muhitda doimiy yashash - bularning barchasi bolaning psixologik fonini tushiradi. Vaqt o‘tishi bilan bu holat passivlik, tushkunlik va keyinchalik apatiyaga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, 6–12 yosh oralig‘idagi maktab o‘quvchilari ushbu muhitga nisbatan o‘ta sezgir bo‘lishadi. Chunki bu davrda kognitiv rivojlanish tez sur‘atlarda kechadi, va bu jarayon har qanday tashqi ta’sirga yuqori darajada ochiq bo‘ladi.

Shunday ekan, gospital muhitda kognitiv susayishni vaqtida aniqlash, ularning sabablari va darajasini baholash, bolaning individual ehtiyojlariga mos keluvchi pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish - gospital pedagogikasining eng muhim vazifalaridan biridir. Zero, bilish faoliyatining susayishi faqat vaqtincha bo‘lishi mumkin, biroq agar bunga vaqtida e’tibor qaratilmasa, bu jarayon bola psixikasida mustahkamlanib qolishi, ya’ni doimiy sustkashlik, motivatsiya yo‘qolishi, “men bajara olmayman” degan ichki inkor hissining shakllanishiga olib keladi. Kasallik sababli izolyatsiya holatiga tushgan bola o‘zini jamiyatdan chetlatilgan deb his qilsa, uning kognitiv faolligi o‘z-o‘zidan pasayadi[4]. Bu yerda ijtimoiy psixologiyaning asosiy qonunini ochadi: insonning bilish faolligi ijtimoiy aloqalar bilan bevosita bog‘liq. Bola do‘stlari, sinfdoshlari, o‘qituvchisi bilan uzilgan aloqani sezganida, u o‘rganishning ma’nosini yo‘qotadi. Shu bois gospital o‘qituvchisi “jamiyat bilan aloqa”ni qayta tiklash uchun onlayn sinflar, virtual muloqot, ota-onalar ishtirokidagi darslar kabi usullarni qo‘llashi lozim.

Ijtimoiy izolyatsiyani yengish - bilish jarayonini tiklashning asosiy shartidir. Gospital sharoitida ta’lim olayotgan o‘quvchilarda bilish jarayonlarini faollashtirish, avvalo, bolaning individual holati, ruhiy-psixologik fon va sog‘ligidagi o‘zgarishlarni inobatga olgan holda, unga mos yondashuvlarni shakllantirishni taqozo etadi. Chunki bu muhitda bola har doimgidek faol, quvnoq, tashabbuskor emas; aksincha, u stress, og‘riq, izolyatsiya va noaniqlik bosimi ostida o‘zining ichki kuchlarini to‘plab yashaydi. Shu sababli ham ta’lim jarayoni bir tomonlama bilim yetkazish emas, balki bola ongini, xotirasini, tafakkurini harakatga keltiruvchi, undagi ruhiy kuchlarni uyg‘otuvchi samarali vositalar tizimi bo‘lishi kerak.

Reabilitatsion ta'lim - bu bolaning shaxsini tiklashga qaratilgan didaktik jarayon bo'lib, u oddiy baho bilan emas, hayotga qaytish ko'rsatkichibilano'lchanadi[5]. Bu fikr hospital ta'lim mohiyatini juda aniq aks ettiradi. Ta'lim bu sharoitda faqat "bilim berish" emas, balki bolaning hayotiy energiyasini, umidini, ijtimoiy faolligini tiklash jarayonidir. Shu bois hospital o'quvchisining yutuqlari soniyaga o'lchanmaydi - u qayta kulganida, so'rashganida, savol berganida, bu pedagogik muvaffaqiyat hisoblanadi. Bu yondashuv shaxsni markazga qo'ygan insonparvar ta'lim paradigmasiga asoslanadi.

Shuningdek, o'yin asosidagi o'qitish hospital pedagogikasida o'ta muhim o'rin tutadi. Chunki o'yin — bu bola uchun ruhiy himoya mexanizmi, ijtimoiy muloqot shakli va bilim olish vositasi sifatida bir vaqtning o'zida ishlaydi. O'yinli topshiriqlar, ball tizimi, vizual yutuqlar, onlayn interaktiv belgilash kabi elementlar orqali bola dars jarayonida ishtirok etibgina qolmaydi, balki raqobat qiladi, o'zini namoyon etadi, va o'z o'rnini his qiladi. O'yin orqali berilgan savollar, topshiriqlar bolaning ichki intellektual salohiyatini majburlab emas, o'z ixtiyori bilan yuzaga chiqaradi. Bu esa bolaning "o'rganaman, chunki men xohlayman" degan ichki motivini kuchaytiradi. Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar asosidagi interaktiv metodlar - ya'ni elektron darsliklar, slaydli tushuntirishlar, animatsiyalangan topshiriqlar, vizual testlar va multimediyaviy savollar - bolaning sezgi a'zolari orqali ta'limni idrok qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Ko'rish, eshitish, harakat qilish orqali o'rganilgan ma'lumotlar bolaning xotirasida uzoqroq saqlanadi, bu esa hospital sharoitida asosiy maqsad - bilimni yo'qotmaslikka xizmat qiladi. Bu borada J. Piagetning fikri dolzarb: "Bola nafaqat so'z orqali, balki harakat va his orqali o'zlashtiradi, uni faqat tushuntirib emas, ko'rsatib, jalb qilib o'rgatish kerak.

Oxirgi, ammo juda muhim yondashuv - bu individuallashtirilgan monitoring va rag'batlantirishdir. Har bir bola o'zining psixofiziologik holatiga ko'ra o'zlashtirish sur'atiga ega. Shu bois unga universal metod emas, balki o'ziga mos keluvchi o'qitish sur'ati, yuklama, va baholash tizimi taklif qilinishi lozim. Psixologik rag'bat - bu darsda bilimdan ko'ra ko'proq zarur bo'lgan ruhiy davovositasi[6]. Nikiforov ta'kidlashicha, pedagogik jarayonda psixologik rag'bat - bu kognitiv faoliyatni harakatga keltiruvchi eng asosiy vosita. Ayniqsa, hospital sharoitida "rag'bat" - bu dori kabi zarur. U bolaning o'ziga ishonchini tiklaydi, o'zining qadrini anglashga yordam beradi. "Senga ishonaman", "sen bajarding", "yaxshi harakat" kabi oddiy so'zlar bolaning asab tizimiga ijobiy ta'sir etadi, stress gormonlarini kamaytiradi, miyada dopamin faolligini oshiradi. Bu esa bilim olishga bo'lgan tabiiy ehtiyojni kuchaytiradi.

**Xulosa:** hospital ta'lim - bu oddiy ta'lim jarayonining shifoxona sharoitiga moslashtirilgan variantigina emas, balki inson hayoti, salomatligi va psixologik barqarorligini birgalikda tiklashga xizmat qiluvchi murakkab va mas'uliyatli pedagogik tizimdir. ushbu tizimda bolaning nafaqat bilim

darajasi, balki emotsional holati, motivatsiyasi, psixofiziologik salohiyati, ichki ruhiy kuchi, ijtimoiy identifikatsiyasi ham e'tiborga olinadi. tadqiqot davomida aniqlanishicha, uzoq muddatli davolanishda bo'lgan bolalarda bilish jarayonlarining tabiiy sur'atda rivojlanishi jiddiy to'siqlarga duch keladi: xotira va e'tiborning zaiflashuvi, motivatsiyaning pasayishi, fikrlash va tasavvur faolligining sustlashuvi - bularning barchasi ta'lim sifati va shaxsiy rivojlanish uchun xavf tug'diradi. bunday vaziyatda samarali ta'lim tashkil etish uchun hospital pedagogikasi an'anaviy didaktik modeldan chiqib, shaxsga yo'naltirilgan, moslashtirilgan, psixologik qo'llab-quvvatlovchi, kognitiv rag'batlantiruvchi va emotsional xavfsizlikni ta'minlaydigan kompleks metodikaga tayanmog'i zarur. kognitiv mashqlar, o'yin asosidagi topshiriqlar, motivatsion yondashuvlar, vizual materiallar, interaktiv texnologiyalar, shuningdek kichik g'alabalarga asoslangan monitoring tizimi orqali bolada bilimga bo'lgan ishonch va qiziqish tiklanadi. ushbu metodlar bolaning shaxsini faollashtiradi, uni "bemor" pozitsiyasidan "bilishga qodir shaxs" pozitsiyasiga ko'taradi.

Tajribalar ko'rsatadiki, o'quvchi sog'lig'i og'ir bo'lsa-da, unga ishonch bildirilsa, harakatlari qadrlansa, fikri tinglansa va o'zini namoyon qilishiga imkon yaratilsa - u o'zining ichki imkoniyatlarini ishga sola boshlaydi. Bu esa faqat dars natijalariga emas, balki uning shaxs sifatida tiklanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, hospital ta'limni shunchaki "darslar to'plami" deb emas, balki psixologik va ijtimoiy reabilitatsiya vositasi sifatida ko'rish lozim. Zero, bu ta'lim — hayotni davom ettirishga undovchi umid va ishonch manbaidir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hospital ta'lim bu faqat sog'liqni saqlashga moslashtirilgan ta'lim shakli emas, balki bolaning psixologik barqarorligi, ijtimoiy faolligi, o'z-o'zini anglashga bo'lgan intilishi va hayotga umid bilan qarashi uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladigan murakkab va ayni paytda zarur pedagogik tizimdir. Uning har bir bosqichi bolani bilim bilan emas, e'tibor va mehr bilan tarbiyalaydi. Zero, og'ir kasallikda yotgan bolaga eng kerakli dars — bu unga ishonadigan, uni qadrlaydigan, unga har kuni bilim beribgina qolmay, yashashga ruh bag'ishlaydigan ustozning harorati va mehridir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Леонтьев А.Н. Деятельность, сознание, личность. М.: Педагогика, 1977. 304 с.
2. Брунер Дж. Процесс обучения. Кембридж: Harvard University Press, 1960. 97 p.
3. Бурменская Г.В. Психологическая помощь детям в клинической практике. СПб.: Речь, 2010. 160 с.

4. Аргайл М. Социальное взаимодействие. Лондон: Methuen, 1987. 214 p.
5. Синягина Н.Ю. Основы госпитальной педагогики. М.: Академкнига, 2012. 128 с.
6. Никифоров Г.С. Основы психологической помощи. СПб.: Речь, 2005. 208 с.
7. Холмуродова М. и др. Махсус педагогика: дарслик. Тошкент: Иқтисод-Молия, 2021. 256 б.
8. Слостенин В.А. Педагогика: Учебное пособие для студентов педвузов. М.: Академия, 2002. 512 с.
9. Piaget J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1972. 246 p.
10. Erikson E. Identity: Youth and Crisis. New York: W.W. Norton, 1968. 336 p.